4 IAASB. ISA 501: Audit Evidence - Specific Considerations for Selected Items // 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. Vol. I; IAASB. ISA 505: External Confirmations // 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. Vol. I; IAASB. ISA 530: Audit Sampling // 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. Vol. I; IAASB. ISA 230: Audit Documentation // 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. Vol. I.

5 IAASB. Proposed Revisions for Audit Evidence & Risk Response: ISA 330, ISA 500 & ISA 520. Exposure Draft. - 5 August 2026. URL: https://www.iaasb.org/publications/proposed-revisions-audit-evidence-risk-response-isa-330-isa-500-isa-520; IAASB. IAASB Proposes Revisions to Core Standards to Enhance Risk-Based Audit Framework and Address Technological Advances. - 5 August 2026. URL: https://www.iaasb.org/news-events/2026-08/iaasb-proposes-revisions-core-standards-enhance-risk-based-audit-framework-and-address-technological

6 IAASB. 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. Vol. I. URL: https://www.iaasb.org/publications/2026-handbook-international-quality-management-auditing-review-sustainability-and-other-assurance

beradi. Muhokamaga çiqarilgan loyihani kuçga kirgan standart bilan tenglaştirib bölmagani sababli, mazkur maqolada amaldagi ISA 330ning muhim operatsiyalar guruhlari, hisobvaraqlar qoldiqlari va oçib beriladigan ma'lumotlar böyiça mohiyati böyiça audit amallariga doir talablari asos qilib olinadi.

Standartlar auditorning kasbiy mulohazasini markazga qöyadi, biroq risk, kalit nazorat, nazoratning işlaş samaradorligini testlaş, hali qoplanmagan dalil ehtiyoji va audit dasturidagi özgarişlarni yagona identifikatorlar tizimida qayd etişning joriy aktivlarga ixtisoslaşgan amaliy usulini bevosita belgilamaydi. Standart talablari va taklif etilayotgan işçi mexanizm örtasidagi farq quyidagiça keltirilgan (1-jadval).

1-jadval

Xalqaro audit standartlari va taklif etilayotgan işçi mexanizm örtasidagi farq[7]

Mezon	Standartdagi mavjud talab	RNDAJning aniqlaştiruvçi işçi natijasi
Risk	ISA 315: risk va auditorlik tasdiği	Aktiv-stsenariy-tasdiq kesimida R-ID
Nazorat	ISA 315/330: dizayn, joriy etiş, işlaş	C-ID, alohida test va tayaniş maqomi
Dalil	ISA 500: yetarlilik va maqbullik	E-ID: dalil talabi va oçiq böşliq
Javob	ISA 330: xarakter, vaqt va kölam	A-ID: protsedura hamda özgariş sababi
Hujjat	ISA 230: dalil va qaror izi	T-ID: versiya va sababni orqaga tiklaş

Ilmiy muammo, maqsad va gipoteza. **Ilmiy boşliq.** Mavjud standartlarda riskka javob beriş va auditorlik dalillarini baholaşning umumiy tamoyillari belgilangan, biroq muayyan dalil boşliğini tegişli auditorlik protsedurasi hamda audit dasturining özgartirilgan versiyasi bilan aniq obyekt va auditorlik tasdiği darajasida boğlaşni formallaştiruvçi qoidalarni yanada rivojlantiriş zarurati mavjud. Tadqiqotning ilmiy yangiligi umumiy "risk - javob - dalil" qoidasini qayta nomlaşda emas, balki aynan uşbu boğliqlikni formallaştirişda namoyon böladi.

Tadqiqot maqsadi - joriy aktivlarning muhim auditorlik tasdiqlari kesimida risk-nazorat-dalil-auditorlik javob çorasi (RNDAJ) modelini şakllantiriş, qarorlar uçun zarur şartlarni hamda dalil boşliğidan maqsadli auditorlik amaliga ötiş qoidasini asoslaş, şuningdek, konstruktiv va salbiy ssenariylarda uşbu qoidalarning mantiqiy izçilligini tekşiriş.

Tadqiqot savollari: (RQ1) joriy aktivlar böyiça riskni auditorlik tasdiği, nazorat, dalil talabi va auditorlik amali bilan qanday identifikatorlar tizimi orqali izçil boğlaş mumkin? (RQ2) nazoratga tayaniş va dalil boşliğini yopiş qanday tekşiriladigan şartlarga böysundirilişi kerak? (RQ3) taklif etilgan qoidalar töliq va nomaqbul kiriş ma'lumotlari şaroitida mantiqiy izçil natija beradimi?

Ilmiy gipoteza: talab etilgan dalilni muayyan auditorlik tasdiği va auditorlik amaliga boğlovçi identifikatorlar tizimi audit dasturidagi qarorlarning tekşiriluvçanligi va izçilligini ta'minlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot dizayni. Tadqiqot normativ-qiyosiy tahlil, jarayonlarni dekompozitsiyalaş, qaror qoidalarini formallaştiriş, deterministik ssenariyli sinov va salbiy holatlarni tahlil qiliş usullariga asoslanadi. Tahlil birligi "joriy aktiv turi - hisobot sanasi - muhim buzib körsatiş ssenariysi - auditorlik tasdiği" boğlamidan iborat. Qoidalar sinovdan oldin belgilandi va keyinçalik har bir keysning kiriş holati hamda kutiladigan javobi bilan soliştirildi.

Sinov ma'lumotlari. Sinov töplami ikki guruhdan iborat: (a) zaxiralar, tugallanmagan işlab çiqariş, tayyor mahsulot, debitorlik qarzlari va pul mablağlari böyiça beşta töliq konstruktiv keys (S1-S5); (b) kiriş ma'lumotlari ataylab töliq bölmagan yoki ziddiyatli şaklda tuzilgan törtta qoida buzilişi keysi (N1-N4). Ssenariylar muayyan korxonada sodir bölgan holatlarni emas, balki işçi algoritmni tekşiriş maqsadida muallif tomonidan tuzilgan ma'lumotlar töplamini ifodalaydi. Şu sababli mantiqiy tekşiruv auditorlik dalillarini amalda yiğiş va qiyosiy dala tajribasining örnini bosmaydi.

RNDAJ pasporti va boğlaniş qoidalari. Modelning asosiy birligi R-ID (risk), C-ID (kalit nazorat), E-ID (zarur dalil), A-ID (auditorlik amali) va T-ID (qaror özgarişining versiyasi) identifikatorlaridan taşkil topadi (2-jadval). Boğlanişlar köp qiymatli xususiyatga ega: bitta risk bir neçta nazoratga, bitta nazorat bir neçta riskka, bitta auditorlik tasdiği esa bir neçta dalil talabiga boğlanişi mumkin. Har bir oçiq E-ID böyiça aniq A-ID yoki asoslantirilgan rad etiş yoxud qayta baholaş qarori hujjatlaştirilişi, A-IDning maqsadi esa tegişli auditorlik tasdiğiga mos kelişi şart. Nazorat testining ijobiy natija berişi mustaqil dalilga bölgan ehtiyojni avtomatik ravişda qondirmaydi (2-jadval).

7 Xalqaro audit standartlari asosida muallif işlanmasi. IAASB. ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. Ko'rsatilgan manba; International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 330: The Auditor's Responses to Assessed Risks. Ko'rsatilgan manba; IAASB. ISA 500: Audit Evidence. Ko'rsatilgan manba; IAASB. ISA 230: Audit Documentation. Ko'rsatilgan manba.

2-jadval

RNDAJ pasporti[8]

ID	Majburiy maydonlar	Tekşiriluvçi natija
R-ID	Aktiv, sana, tasdiq, stsenariy, risk bahosi	Riskning aniq hisobot da'vosiga boğlanişi
C-ID	Nazorat egasi, davr, dizayn, joriy etiş, test	Tayaniş maqomining dalili
E-ID	Manba, relevantlik, işonçlilik, böşliq maqomi	Dalil yetarliligi va maqbulligi
A-ID	Amal mazmuni, xususiyati, vaqti, qamrovi	Maqsadli audit javob çorasi
T-ID	Eski/yangi qaror, sabab, sana, işçi qoğoz	Qarorning qayta tiklanişi

Risk ustuvorligi va nazoratga tayaniş mezoni. Dastlabki ustuvorlaştiriş uçun 1-5 ballik ehtimol (P_i) va ta'sir (I_i) şkalalaridan foydalanildi:

$$S_i = P_i \times I_i;\ P_i, I_i \in \{1, 2, 3, 4, 5\} \quad (1)$$

Bunda S_i körsatkiçining 1-5 ball oraliğida bölişi past, 6-14 ball oraliğida bölişi örta va 15-25 ball oraliğida bölişi yuqori ustuvorlikni ifodalovçi şartli içki şkala hisoblanadi. Mazkur şkala qarorlarni vizual tarzda taşkil etiş vositasi bölib, ehtimolning statistik bahosi yoki ISA 315da belgilangan majburiy çegaraviy qiymat hisoblanmaydi. Muhim risk (significant risk) maqomi uşbu ballga avtomatik ravişda boğlanmaydi; auditor uni riskning xususiyati, muhimlik darajasi, firibgarlik alomatlari va kasbiy mulohazasi asosida baholaydi.

Nazoratga tayaniş ikki alohida şart asosida belgilanadi: (1) nazoratning loyihalanişi tegişli riskni bartaraf etiş yoki aniqlaş uçun mos bölişi hamda uning amalda joriy etilganligini tasdiqlovçi dalillar olinişi; (2) agar auditor nazoratga tayanişni rejalaştirsa yoki faqat mohiyati böyiça auditorlik amallari orqali yetarli dalil oliş mumkin bölmasa, nazoratning tegişli davrdagi işlaş samaradorligi tekşirilişi. Zarur işlaş samaradorligi testi ötkazilmagan bölsa, nazoratga tayaniş yuzasidan ijobiy xulosa berilmaydi (3-jadval). Mazkur şartlar ISA 315 va ISA 330ning amaldagi talablariga asoslanadi; mualliflik yeçimi esa uşbu şartlarni qaror hujjatlari va auditorlik amallari bilan identifikatorlar orqali boğlaşdan iborat (3-jadval).

3-jadval

Nazoratga tayanişning qaror şartlari[9]

Nazorat maqomi	Şart	Auditorlik oqibati
Tayaniş mumkin	Dizayn va joriy etiş mos; talab etilgan işlaş testlari qoniqarli	Strategiyada çeklangan asosli tayaniş; zarur mazmunan amallar saqlanadi
Tayaniş mumkin emas	Muhim dizayn, joriy etiş yoki işlaş nuqsoni	Nazoratga tayanmaslik; mazmunan testlarni qayta belgilaş
Aniqlanmagan	Test dalili olinmagan yoki yetarli emas	Qöşimça test yoki mustaqil mazmunan amal

Dalil boşliğiga asoslangan qaror algoritmi. "Dalil boşliği" deganda muayyan auditorlik tasdiği böyiça asoslangan xulosa çiqariş uçun zarur bölgan, ammo hali yetarli va maqbul darajada olinmagan yoxud özaro zid bölgan ma'lumotlar majmuasi tuşuniladi. E-ID maqomi "oçiq", "qisman yopilgan" yoki "yopilgan" tarzida yuritiladi. Dalil boşliğini yopiş töğrisida qaror qabul qilişdan oldin dalilning relevantligi, işonçliligi va yetarliligi baholanadi. Zid axborot olingan taqdirda, avvalgi maqom va uning asosi saqlangan holda E-ID qayta oçiladi. Auditorlik amali töğrisidagi qaror quyidagi şartli funksiya sifatida ifodalanadi:

$$A_i = F(R_i, C_i, E_i, M_i, J_i) \quad (2)$$

Bu yerda A_i - tegişli auditorlik amali töğrisidagi qaror; R_i - baholangan risk va auditorlik tasdiği; C_i - nazoratga tayaniş imkoniyati; E_i - dalil boşliği maqomi; M_i - muhimlik va operatsiya kölami; J_i - auditorning kasbiy mulohazasi. F - şartli qaror funksiyasi bölib, ehtimoliy auditorlik riskini son jihatdan hisoblaş formulasi emas.

Qaror algoritmi yetti qadamdan iborat: (1) risk ssenariysi va auditorlik tasdiğini R-IDda aniqlaş; (2) C-ID böyiça nazoratning loyihalanişi, joriy etilişi va zarur işlaş samaradorligi testini tekşiriş; (3) E-IDning oçiq yoki qisman oçiq qoliş sababini belgilaş; (4) aynan şu auditorlik tasdiğiga relevant bölgan auditorlik amalini tanlaş;

8 Muallif taklifi.

9 Xalqaro audit standartlari asosida muallif taklifi. IAASB. ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. Ko'rsatilgan manba; International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 330: The Auditor's Responses to Assessed Risks. Ko'rsatilgan manba; IAASB. ISA 500: Audit Evidence. Ko'rsatilgan manba.

(5) A-IDda auditorlik amalining xususiyati, bajariliş vaqti, kölami va mas'ulini belgilaş; (6) T-IDda qarorning sababi, avvalgi va yangi versiyalari hamda işçi hujjat manzilini saqlaş; (7) yangi dalil yoki ziddiyat yuzaga kelsa, risk bahosi va auditorlik javob çorasini qayta körib çiqiş. Şartlar va ularga mos qarorlar 4-jadvalda keltirilgan (4-jadval).

4-jadval

Dalil boşliği va auditorlik javob çorasining qoida matritsasi[10]

Şart	Tayaniş	Dalil	A-ID uçun qaror
Yuqori risk, işlaş testi qoniqarli	Asoslangan holda mumkin	Oçiq	Aynan oçiq tasdiq böyiça taşqi/mustaqil dalil oliş
Yuqori risk, nazorat samarasiz	Mumkin emas	Oçiq yoki qisman	Xususiyat, vaqt va qamrovni kuçaytiriş
Örta risk, test noaniq	Tayanilmaydi	Qisman oçiq	Qöşimça nazorat testi yoki mazmunan amal
Past risk, işlaş testidan ötgan	Asoslangan bölsa mumkin	Yopilgan	Mutanosib dastur; muhim moddalarga zarur mazmunan amallar
Har qanday risk, zid dalil	Qayta baholanadi	Qayta oçiladi	Ziddiyat sababini tekşiriş va audit strategiyasini qayta baholaş

Natijalarni baholaş mezonlari. Konstruktiv ssenariylar uçun törtta formal mezon belgilandi: T1 - risk va tegişli auditorlik tasdiği aniqlangan; T2 - nazorat maqomi hamda dalil talabi alohida qayd etilgan; T3 - oçiq dalil talabiga mos auditorlik amali belgilangan; T4 - qaror izi R-ID, C-ID, E-ID, A-ID va T-ID böyiça qayta tiklanadi. Barça mezonlar bajarilsa, $Z_i = 1$, aks holda $Z_i = 0$. Formal qoplaniş darajasi quyidagiça hisoblanadi:

$$Q = (\Sigma_{i=1}^{n} Z_i / n) \times 100\%;\ Z_i = 1, \text{agar } T1 \wedge T2 \wedge T3 \wedge T4, \text{aks holda } 0 \qquad (3)$$

Mezonlar audit sifatining universal körsatkiçi emas, balki qaror hujjatining oldindan belgilangan töliqlik şartlaridir. Salbiy keyslarda kutiladigan natija "ijobiy qarorni qaytariş" emas, balki aynan qoida buzilişini aniqlaş va qöşimça amalni belgilaş deb qabul qilindi: salbiy keys muvaffaqiyatli hisoblanişi uçun algoritm notöğri ijobiy qarorni rad etişi kerak.

TAHLIL VA NATIJALAR

Joriy aktivlarga xos risk-dalil ssenariylari. RNDAJ modeli beşta konstruktiv holatda qöllanildi. Har bir keysda risk, nazorat testi, dalil boşliği va auditorlik javob çorasi alohida belgilandi (5-jadval).

5-jadval

Joriy aktivlar auditida beşta şartli qaror ssenariysi[11]

Keys	Ob'yekt va tasdiq	Risk	Nazorat	Dalil	Audit javob çorasi
S1 / R-01	Tugallanmagan işlab çiqariş / baholaş	Buyurtmaga xarajat notöğri taqsimlangan	C-01: test salbiy	E-01: kalkulyatsiya oçiq	A-01: buyurtmalar kesimida qayta hisoblaş
S2 / R-02	Debitorlik / baholaş, davr	Eski qarz muddati yangi şartnomaga surilgan	C-02: test salbiy	E-02: huquqiy muddat oçiq	A-02: ID böyiça muddatlarni tiklaş, keyingi tölov/tasdiq
S3 / R-03	Zaxira / mavjudlik	Omborda jismoniy mavjudlik tasdiği qisman	C-03: test ijobiy	E-03: sanoq qisman oçiq	A-03: mustaqil sanoq va kesim testlari
S4 / R-04	Pul mablağlari / mavjudlik	Içki soliştirma bor, taşqi dalil yöq	C-04: test ijobiy	E-04: taşqi dalil oçiq	A-04: bankdan bevosita tasdiq
S5 / R-05	Tayyor mahsulot / baholaş	Sof realizatsiya qiymati uçun narx dalili yöq	C-05: aniqlanmagan	E-05: NRV dalili oçiq	A-05: keyingi sotuv va narx hujjatlari bilan qayta baholaş

Konstruktiv ssenariylarda qarorlarning trassirovkalaniş. S1-da tugallanmagan işlab çiqariş kalkulyatsiyasini qayta hisoblaş; S2-da debitorlik talabining mustaqil huquqiy muddatini tiklaş; S3-da nazorat testining ijobiy natijasiga qaramay, mavjudlik böyiça dalil oliş uçun mustaqil sanoq ötkaziş; S4-da içki bank soliştirmasiga qöşimça ravişda taşqi tasdiqlaş; S5-da sof realizatsiya qiymatini tegişli narxlar va keyingi sotiş hujjatlari asosida qayta baholaş belgilandi. Beşta keysning barçasida T1-T4 mezonlari bajarildi (6-jadval):

10 Muallif işlanmasi.
11 Muallifning deterministik modellaştirişi.

$$Q = (1 + 1 + 1 + 1 + 1) / 5 \times 100\% = 100\% \quad (4)$$

6-jadval

RNDAJ modelida formal qoplanişning mantiqiy tekşiruvi (1 - şart bajarilgan)[12]

Keys	T1	T2	T3	T4	Z_i	Model natijasi
S1	1	1	1	1	1	Kalkulyatsiya böşliği → qayta hisoblaş
S2	1	1	1	1	1	Muddat böşliği → şartnoma kesimida tiklaş
S3	1	1	1	1	1	Sanoq böşliği → mustaqil test
S4	1	1	1	1	1	Taşqi dalil böşliği → bank tasdiği
S5	1	1	1	1	1	NRV böşliği → qayta baholaş

Salbiy ssenariylarda qaror qoidalarining tekşirilişi. Törtta salbiy keysda kiriş ma'lumotlari töliq emas yoki izçil şakllantirilmagan. Barça holatlarda belgilangan qoidalar notöğri ijobiy qarorlarni rad etdi va qöşimça auditorlik amallarini bajarişni talab qildi. Mantiqiy tekşiriş natijasi 4/4 ni taşkil etdi (7-jadval).

7-jadval

RNDAJ qaror qoidalarining salbiy testlari[13]

Keys	Qoida buzilişi	Kutiladigan nazorat javobi	Mantiqiy natija
N1	Nazorat dizayni mos, işlaş testi yöq; tayaniş maqomi "mumkin"	Tayanişni tasdiqlamaslik; zarur test yoki mustaqil mazmunan amal	Qoida buzilişi aniqlanadi
N2	E-ID "yopilgan", ammo dalil işonçliligi tekşirilmagan	Dalil talabini qayta oçiş; relevant va işonçli manba söraş	Qoida buzilişi aniqlanadi
N3	Içki va taşqi dalil zid, lekin A-ID özgartirilmagan	Ziddiyat sababini tekşiriş, R-ID va A-IDni qayta baholaş	Qoida buzilişi aniqlanadi
N4	Oçiq E-ID uçun A-ID bor, lekin T-ID va qaror sababi yöq	Trassirovkani töliq emas deb baholaş; özgariş izini talab qiliş	Qoida buzilişi aniqlanadi

Nazorat testi va dalil yetarliligining mustaqilligi. Ssenariylar natijalari nazorat testi natijasi va auditorlik dalillarining yetarliligi modelda mustaqil qaror ölçamlari ekanligini körsatdi. S3 holatida inventarizatsiyaga oid nazorat testining ijobiy natijasi mustaqil sanoq daliliga bölgan ehtiyojni bartaraf etmadi; S4 holatida esa bank soliştirmasining töğri yuritilişi taşqi tasdiq oliş zaruratini öz-özidan qondirmadi. Ikkala tekşiriş şarti - nazoratga tayaniş uçun tegişli işlaş samaradorligi testining mavjudligi hamda dalil boşliğini yopiş uçun auditorlik dalillarining yetarliligi va maqbulligini baholaş - buzilgan holatlarda (N1, N2) algoritm ijobiy xulosani qabul qilmadi va dalil talabini oçiq qoldirdi.

Natijalarning talqini. Olingan natijalar RNDAJ modelining ilmiy obyekti riskning sonli balli emas, balki muayyan auditorlik tasdiği böyiça qarorlar örtasidagi zarur boğlanişlar majmuasi ekanligini körsatadi (RQ1). Birinçi natija - köp qiymatli axborot boğlamasi: bitta risk bir neçta nazorat va dalil talabiga ega bölişi mumkin, har bir oçiq E-ID esa unga relevant bölgan A-ID yoki asoslangan qayta baholaş qarori bilan boğlanadi. Ikkinçi natija - nazoratga tayaniş imkoniyatini nazoratning loyihalanişi va joriy etilganligiga oid dalillardan alohida körib çiqiş hamda uni işlaş samaradorligiga oid dalillar bilan çeklaşdan iborat (RQ2). Uçinçi natija - audit dasturidagi özgarişlarning sabablarini va uning dastlabki versiyasini saqlaş, şuningdek, zid dalillar kelib tuşganda E-IDni qayta oçiş mexanizmining işlab çiqilganligidir.

Beşta konstruktiv keysda formal boğlam töliq şakllandi, salbiy keyslarda esa törtta aniq qoida buzilişi aniqlandi (RQ3). Demak, RNDAJ tekşiriş mexanizmi nafaqat töğri tuzilgan pasportni tasvirlaş bilan çeklanadi, balki nomaqbul qaror qabul qilişga olib keluvçi şartlarni ham ajratib körsatadi. Şu tariqa, ilmiy gipoteza sinov töplami doirasida mantiqiy jihatdan tasdiqlandi.

Xalqaro standartlar bilan qiyoslaş. Mavjud ISA talablarida riskka javob beriş va dalilni baholaşning umumiy printsiplari belgilangan[14]; mazkur tadqiqot uşbu talablarni R-ID, C-ID, E-ID, A-ID va T-ID orqali dastur özgarişigaça hujjatlaştiriş qoidasini taklif etadi. Model standartlar mazmunini almaştirmaydi, balki ISA 230

12 Muallif hisob-kitobi.
13 Muallif işlanmasi.
14 IAASB. ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement. Ko'rsatilgan manba; International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 330: The Auditor's Responses to Assessed Risks. Ko'rsatilgan manba; IAASB. ISA 500: Audit Evidence. Ko'rsatilgan manba.

talab qiladigan qaror izini[15] tasdiq darajasida tuzilmalaştiradi. IAASB loyihasida dalilning relevantligi, işonçliligi va professional skeptitsizmga e'tiborning kuçaytirilişi[16] E-ID maqomini yuritişda dalil sifatini alohida baholaş talabiga mos keladi; biroq loyiha hali kuçga kirmagani sababli bu muvofiqlik dastlabki xarakterga ega.

Amaliy ahamiyat. Model riskka javoban tekşiriş amallarini qisqartiriş töğrisidagi qarorni auditorlik dalillari bilan muvofiqlaştiriş imkonini beradi hamda muayyan raqamli platformaga boğliq bölmagan holda audit işçi qoğozlarida qöllanilişi mumkin. Mazkur jihat audit jarayonini avtomatlaştiriş va işçi qoğozlar sifatini nazorat qilişda mustaqil uslubiy ahamiyatga ega. Şu bilan birga, taşqi auditor korxonaning içki nazorat tizimini rahbariyat örniga loyihalamaydi va boşqarmaydi. RNDAJ modeli auditorning professional mulohazasi, skeptitsizmi va mustaqilligini almaştiriş uçun emas, balki ularning natijalarini hujjatlaştiriş hamda muhim auditorlik dalillariga bölgan ehtiyojni közdan qoçirmaslik uçun möljallangan.

Tadqiqot çeklovlari. Birinçidan, sinov ma'lumotlari muallifning özi tomonidan tuzilganligi sababli Q = 100% natijasi mustaqil taşqi validatsiya natijasi sifatida qabul qilinmaydi. Ikkinçidan, 4/4 natijasi algoritm qoidalaridan kelib çiqadigan deklarativ test natijasi bölib, taşqi auditorlar iştirokidagi statistik eksperiment yoki işlaydigan dasturiy mahsulot sinovi sifatida talqin qilinmaydi. Uçinçidan, auditorlik riskining hisoblangan kamayişi, mehnat sarfi yoki real xatolarni aniqlaş uluşi formal töliqlik indikatoridan kelib çiqmaydi. Nihoyat, olingan natijalar mustaqil auditorlik tekşiruvlarida RNDAJ bilan boyitilgan dastur amaldagi dasturdan albatta ustun ekanligini anglatmaydi.

Keyingi tadqiqotlar yönalişi. Ilmiy natijani amaliyotda baholaş uçun V1 - amaldagi riskka asoslangan audit dasturi va V2 - RNDAJ pasporti bilan boyitilgan dasturni bir xil risk ssenariylari, muhimlik darajasi, tekşiriş qamrovi hamda mustaqil baholaş mezonlari asosida qiyoslaş taklif etiladi. Kasbiy jihatdan töğri deb topilgan qarorlar etalonini mustaqil ekspertlar belgilaşi, bir xil keyslar V1 va V2 usullari böyiça yeçilişi hamda natijalar 8-jadvalda keltirilgan körsatkiçlar asosida taqqoslanişi lozim. Bunda auditorlik standartlari böyiça majburiy amallarning saqlanişiga, nazoratga tayanişning hujjatli asosiga va dalil manbalari örtasidagi ziddiyatlarni qayta baholaşga alohida e'tibor qaratiladi. Körsatkiçlarning ahamiyati V2 samarasini oldindan taxmin qilişda emas, balki ikki yondaşuvni bir xil mezonlar asosida ölçaş imkoniyatini yaratişdadir (8-jadval).

8-jadval

Qiyosiy baholaş indikatorlari[17]

Körsatkiç	Formula yoki ölçov	Ilmiy talqin
Muhim muammolarni aniqlaş töliqligi	TP / (TP + FN) × 100%	Mustaqil etalon talab qilinadi
Asossiz signallar uluşi	FP / (TP + FP) × 100%	Signallarning ekspert tasdiği talab qilinadi
Dalil böşliği qamrovi	Yopilgan sifatli E-ID / barça talab etilgan E-ID × 100%	Yopiliş faqat yetarli va maqbul dalil bilan
Qaror izçilligi	Maqbul qarorlar / jami qarorlar × 100%	Maqbul qaror mezoni oldindan belgilanadi
Auditorlik mehnat sarfi	Bir xil qamrovga sarflangan soat	Sifat pasayişi hisobiga tejam qabul qilinmaydi

Izoh: TP - töğri aniqlangan holat; FN - ötkazib yuborilgan holat; FP - asossiz signal

XULOSA VA TAKLIFLAR

Birinçidan, joriy aktivlar böyiça muhim buzib körsatiş risklarini auditorlik tasdiği darajasida kalit nazorat, dalil talabi, auditorlik amali va qaror versiyasi bilan boğlovçi RNDAJ modeli işlab çiqildi. R-ID, C-ID, E-ID, A-ID va T-ID identifikatorlari tizimi orqali qarorning dastlabki asosidan yakuniy işçi hujjatgaça qayta tiklanişi mumkin bölgan axborot zanjiri belgilandi.

Ikkinçidan, nazoratning loyihalanişi va joriy etilganligi hamda uning işlaş samaradorligini alohida baholaşga asoslangan ikki bosqiçli qaror mexanizmi formallaştirildi. Mazkur mexanizm nazoratga tayanişni hujjatning mavjudligiga emas, balki tegişli auditorlik dalillariga boğlaydi.

Uçinçidan, dalil boşliğini "oçiq - qisman yopilgan - yopilgan" maqomlari asosida baholaş va har bir oçiq talabni maqsadli auditorlik amaliga biriktiriş qoidalari taklif etildi. Yangi yoki zid ma'lumotlar kelib tuşganda, qarorning avvalgi versiyasini saqlagan holda audit dasturini qayta belgilaş tartibi asoslandi.

15 IAASB. ISA 230: Audit Documentation. Ko'rsatilgan manba.

16 IAASB. Proposed Revisions for Audit Evidence & Risk Response: ISA 330, ISA 500 & ISA 520. Exposure Draft. Ko'rsatilgan manba; IAASB. IAASB Proposes Revisions to Core Standards to Enhance Risk-Based Audit Framework and Address Technological Advances. Ko'rsatilgan manba.

17 Manba: muallif işlanmasi.

Tortinçidan, beşta konstruktiv ssenariyda T1-T4 formal mezonlari böyiça töliq qarorlar boğlami şakllandi (5/5), törtta salbiy keysda esa nazoratga dalilsiz tayaniş, dalil boşliğini asossiz ravişda yopiş va qaror izining uzilişi belgilangan qoidalarga zid ekanligi aniqlandi (4/4). Mazkur natijalar algoritmning muayyan sinov töplami doirasidagi içki tekşiriluvçanligini asoslaydi.

Beşinçidan, RNDAJ modeli bilan boyitilgan dasturning natijadorligini mustaqil etalonga nisbatan baholaş uçun aniqlaş töliqligi, asossiz signallar uluşi, dalil boşliği qamrovi, qarorlar izçilligi va auditorlik mehnat sarfi körsatkiçlari taklif etildi. Uşbu mezonlar joriy aktivlar auditini takomillaştirişga qaratilgan ilmiy taklifni empirik sinovdan ötkaziş uçun asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. Alles M.G., Kogan A., Vasarhelyi M.A. Restoring Auditor Credibility: Tertiary Monitoring and Logging of Continuous Assurance Systems / M.G. Alles, A. Kogan, M.A. Vasarhelyi // International Journal of Accounting Information Systems. - 2004. - Vol. 5, № 2. - P. 183–202. - DOI: 10.1016/j.accinf.2004.01.010.
2. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. - Vol. I. - ISBN 978-1-60815-623-8. - URL: https://www.iaasb.org/publications/2026-handbook-international-quality-management-auditing-review-sustainability-and-other-assurance.
3. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). IAASB Proposes Revisions to Core Standards to Enhance Risk-Based Audit Framework and Address Technological Advances. - 2026. - 5 August. - URL: https://www.iaasb.org/news-events/2026-08/iaasb-proposes-revisions-core-standards-enhance-risk-based-audit-framework-and-address-technological.
4. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 230: Audit Documentation // 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. - Vol. I.
5. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 315 (Revised 2019): Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement [Elektron resurs]. - New York: IAASB, 2019. - URL: https://www.iaasb.org/publications/isa-315-revised-2019-identifying-and-assessing-risks-material-misstatement.
6. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 330: The Auditor's Responses to Assessed Risks // 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. -New York: IFAC, 2026. -Vol. I.
7. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 500: Audit Evidence // 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. - Vol. I.
8. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 501: Audit Evidence – Specific Considerations for Selected Items // 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. - Vol. I.
9. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 505: External Confirmations // 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. - Vol. I.
10. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). ISA 530: Audit Sampling // 2026 Handbook of International Quality Management, Auditing, Review, Sustainability and Other Assurance, and Related Services Pronouncements. - New York: IFAC, 2026. -Vol. I.
11. International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB). Proposed Revisions for Audit Evidence & Risk Response: ISA 330, ISA 500 & ISA 520. Exposure Draft. - 2026. - 5 August. - URL: https://www.iaasb.org/publications/proposed-revisions-audit-evidence-risk-response-isa-330-isa-500-isa-520.
12. Knechel W.R. The Business Risk Audit: Origins, Obstacles and Opportunities / W.R. Knechel // Accounting, Organizations and Society. - 2007. - Vol. 32, № 4-5. - P. 383-408. -DOI: 10.1016/j.aos.2006.09.005.
13. Nelson M.W. A Model and Literature Review of Professional Skepticism in Auditing / M.W. Nelson // AUDITING: A Journal of Practice & Theory. - 2009. - Vol. 28, № 2. - P. 1-34. - DOI: 10.2308/aud.2009.28.2.1.
14. Peecher M.E., Sshwartz R., Solomon I. It's All About Audit Quality: Perspectives on Strategic-Systems Auditing / M.E. Peeçer, R. Schwartz, I. Solomon // Accounting, Organizations and Society. - 2007. - Vol. 32, № 4–5. - P. 463-485. - DOI: 10.1016/j.aos.2006.09.001.



YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 11/1

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz